



**PEDAGOGIK FAOLIYATDA TA'LIM METODI VA
INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANIB TA'LIM
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Ma'murova Sabrina Alisher qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Sport va chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti

Texnologik ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

sabrinamamurova908@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7869849>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2023

Accepted: 26th April 2023

Online: 27th April 2023

KEY WORDS

Ta'lim, metod, ta'lim vositalari,
pedagogik yangilik,
innovatsiya, faoliyat,
zamonaviy usullar, sifat,
samara, innovatsion
texnologiya, muhit.

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada ta'lim metodlar muammosining dolzarbligi va ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinib, pedagogik faoliyatda ta'lim metodlari va innovatsion metodlarning tasnifi; nazariy va amaliy asoslarning mazmuni hamda mohiyati yoritilgan. Shuningdek maqolada tajriba ishlarining dastlabki nazorat natijalari hamda ta'lim metodlarining mavjud holatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Mamlakatimizda ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar va vositalar samaradorligiga bog'liq bo'lib, u ta'lim nazariyasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Innovatsion faoliyatning eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali va sifatli tashkil etishdan iborat. Ta'lim berishda esa turli xil usullar hamda metodlar mavjud bo'lib, hozirda turli innovatsion metodlar qo'llanilib kelinmoqda. Innovatsion faoliyatda pedagogik yangiliklar, o'qitishning yangi usul va metodlari yaratilishi va qo'llanilishi o'quv jarayonining samarali va sifatli tashkil etilishini yaratib beradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Pedagogik yangilik- ilgari ta'lim sohasida bo'lmagan metodlar hamda ta'lim sohasida no'malum bo'lgan o'zgarishlarni keltirib chiqarish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariyasi va amaliyotini boyituvchi hamda rivojlantiruvchi omildir.

"Metod" - yunoncha "metodos" - "yôl" degan sôzadan paydo bôlib, u taqdid qilish manosini anglatadi. Ta'lim metodi o'qituvchi hamda o'quvchilarning aniq bir maqsadga erishish uchun qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir.

Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyat hamda asoslarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mohiyatini va tamoyillarini to'g'ri anglash natijasi hisoblanadi. O'qitish metodlari ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchi qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek pedagogik qarashlarda nazariya qancha kam ifodalangan bo'lsa, ta'lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog'liq bo'ladi. Pedagogika fani maktablar va ta'lim beruvchilarning ilg'or ish tajribalarini umumlashtiradi, an'anaviy



ta'limning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi, o'qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi. Darxaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, turli innovatsion usul hamda metodlaridan foydalanish, ta'lim sifatini hamda samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylandi.

Pedagogika fanida ta'lim metodlarini va usullarini tasnif etish masalasi ham alohida muammo sifatida o'rganilgan bo'lib, turli yillarda faoliyat ko'rsatgan turli tadqiqotchilar tomonidan ta'lim metodlari turlicha tasnif etilgan. Ya'ni pedagogikada o'qitish metodlarini tasnif etishga oid turli tuman qarashlar mavjud bo'lib, ba'zi olimlar o'qitish metodlarini tasnif etishda bilim manbalarini hisobga olgan bo'lsa, ayrimlari esa o'qituvchi faoliyatini, yana ayrim olimlar esa o'quvchilar faoliyatini e'tiborga olgan. Ta'lim metodlari va usullari tasnifining bunday ko'p va rang-barang bo'lishi tabiiy, chunki o'qitish metodlari mazmunan boy hodisa bo'lib, ular ma'lumot mazmuni bilan ham, o'qituvchi hamda o'quvchi faoliyati bilan, bilim va malakalar bilan, qolaversa ilodiy qobiliyatlarni, munosabatlarni rivojlantirish ishlari bilan bog'liq bo'lgan tushuncha hisoblanadi. Shu bois ta'lim metodlarini tasnif etish bo'yicha yagona yondashish mavjud emas. Hozirgi kunda asoslovchi tajriba davrida nazariy tahlil, hujjatlarni o'rganish, pedagogik kuzatish, anketa, test, suhbat, intervyu metodlari yordamida umum o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining ta'lim metodlarini bilish va ulardan foydalanishning mavjud darajasini baholashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim metodi psixologik asosga ega hisoblanadi. Bolalarning o'quv materialini o'zlashtirishdagi yosh imkoniyatlari va uning yetuklik darajasi o'qitish va o'qish usullariga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini va shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish o'qitishning samaraliroq usullarini topish imkoniyatlarini beradi. Mutaxassislar tayyorlashning shaxsiy faoliyati konsepsiyasi bo'yicha ta'lim jarayonida individual ta'lim jarayonini individual-ijodiy shaxsi shakllantirish jarayoni sifatida qarashga, shuningdek, o'qitishni nafaqat o'qitiladigan fan mantiqiga, balki shaxsining rivojlanishi mantiqiga muvofiq holda tashkil etishga imkon beradi deb qaraladi.

Bugungi kunda dars jarayonlarida "Krassword", "Muzyurar", "Sinkveyn", "Keys stady", "Invert", "BBB", "Ven diagrammasi", "Aqliy hujum", va "Zig-zag" texnologiyalaridan o'quv jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda. Mazkur maqolada dars jarayoning samarali va sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi yana bir nechta innovatsion metodlarni tavsiya etamiz.

"Kamalak jilosi" metodini pedagogik faoliyatimizda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod ona tili, matematika, va o'qish darslarida ham foydalanish mumkin.

"Krassword" metodi avvaldan qo'llanilib kelinayotgan metodlardan biridir, uni har bir sinfning har bir darsida uchratishimiz mumkin.

Muloqotlar natijasida mustaqillik yillarida O'zbekistonda umumta'lim maktablarining o'qituvchilarida didaktik qonun va ta'lim metodlariga oid yaxlit manba mavjud emasligi ko'rsatildi. Garchi o'qituvchilar fanlarni o'qitish, shuningdek o'quvchilarga ta'lim muassasasining faoliyati yo'nalishiga muvofiq kasbiy bilimlarni berishga yo'naltirilgan ayrim ixtisoslik fanlari doirasida ta'lim metodlariga amal qilsalarda, ularning ta'lim metodlari to'g'risidagi nazariy bilim va ko'nikmalari tizimli emas. Buning asosiy sababi bo'lg'usi o'qituvchilar va yosh o'qituvchilarning ta'lim metodlarining mohiyati va ahamiyatini yaxshi bilmasligidadir. Shuningdek ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rtasidagi muvofiqlikning mavjud emasligi ham bunga sabab bo'lmoqda. Umumta'lim maktablari hamda Oliy ta'lim



muassasalarida dars jarayonini oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materiallarini kichik kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs - munozara, muommoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, obrazli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytishim mumkinki, axborot kommunikatsiya tizimining ulkan darajada rivoj topib borayotgan bir davrda pedagoglar texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratish darajasida ilmiy va mahoratli bo'lishi lozim. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida barcha bilim oluvchilarga soda, tushunarli va oson bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llay olishi, ko'rgazmali qurollardan foydalanishi, pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va samarali foydalanishi maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Pedagog yaratuvchanlik asosida darsni qiziqarli tashkil qila olsa, o'quvchi yoshlar ham fanga bo'lgan qiziqishi va sifatli, samarali bilim olishi oshib boraveradi.

References:

1. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
2. Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.
3. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
4. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
5. Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA ISPANIYA XV-XVII ASRLARDAGI TARIXI. Scientific progress, 1(6).
6. Elguzarov, B. B. O. G. L., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA MITANNI DAVLATCHILIGINING O'RNINI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6), 616-619.
7. Erkinov, A. S. O., & Haydarov, S. (2021). YUNON-BAQTRYA PODSHOLIGINING IJTIMOYI TUZIMI, XO'JALIGI VA MADANIYATI. Scientific progress, 1(6), 620-622.
8. Nematov, M. D. O., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI ORGANISHDA SHUMER-AKKAD DAVLATCHILIGINING ORNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
9. Ermatov, F., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA 1870-1914 YILLARDA ANGLIYANING O'RGANILISHI. Scientific progress, 1(6).
10. Do'stmurodov, S., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA XIX-XVIII ASRLARDA HINDISTONNI O'RGANISH. Scientific progress, 1(6).
11. Mengboyev, S. N., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA URARTU PODSHOLIGINING O'RNINI. Scientific progress, 1(6).
12. Asqarov, N. S. O., & Haydarov, S. (2021). ARAB XALIFALIGINING POYTAXTI BAG'DODNING TANAZZULGA YUZ TUTISHI. Scientific progress, 1(6).



13. Ro'Zmetov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIXNI O'RGANISHDA SOSONIYLAR DAVLATINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
14. Tulaboyev, D., & Haydarov, S. (2021). TARIXNI O'RGANISHDA MESOPATAMIYANING TARIXI VA DINI: O'RNI HAMDA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
15. Ҳайдаров, С.А., (2022). Заҳриддин Муҳаммад Бобур: бир қўлда мўйқалам-у, бир қўлда тож. Scientific progress, 3(3).